

## DO`STLIK TUMAN AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI AXBOROT-BIBLIOGRAFIYA XIZMATI



*Taniqli bibliograf, “Turkiston to‘plami” ko‘rsatkichini  
tuzuvchisi Vladimir Izmaylovich Mejov tavalludining 195  
yilligi munosabati bilan “Turkiston to‘plami” asoschisi”  
nomli kitobxonlarga tavsiyanoma.*

# “Turkiston to‘plami” asoschisi



## **„TURKESTANSKIYE VEDOMOSTI“ („Turkiston vedomostlari“) –**

**Turkistondagi** ilk davriy matbuot, rus istilochilari tomonidan tashkil etilgan dastlabki gazeta. Amalda besh yil davomida ro‘znomaga Turkiston general gubernatori fon **Kaufman** muharrirlik qilgan. 1870-yil 28-aprel (10-may)dan **Toshkentda** (1872-yil iyul – 1873-yil fevralda Peterburgda) **rus tilida** nashr qilingan. Dastlab gazeta bir maromda chiqmagan. 1870-yilda fakat 17 ta soni chop etilgan. Keyingi yildan boshlab haftasiga 1 marta, 1903-yildan oyiga 3—4 marta, 1907-yildan kundalik gaz. sifatida chiqa boshlagan. Gazetaning 6406 soni bosilgan. „Turkestanskiye vedomosti“ faoliyatiga bevosita general gubernator xizmatidagi harbiylar rahbarlik qilishgan. Piyoda qo‘shinlar ofitseri N. A. Mayev 1892-yilga qadar (1-102-sonlari) muharrir bo‘lgan.

„Turkestanskiye vedomosti“ podsho Rossiyasi hukumatining Turkistondagi mavqeini mustahkamlashga, o‘lkada chorizm siyosatini o‘tkazishga, mahalliy aholini chor hukmdorlari va amaldorlariga itoatgo‘ylik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan. Gaz.da, asosan, Turkiston generalgubernatorligining buyruk va farmonlari, turli xil rasmiy ma‘lumotlar bosilgan. Shuningdek, o‘lka tarixi, xo‘jaligi, tabiati va bu yerda yashovchi xalqlarning etnografiyasi, folklori, adabiyoti, urfodatlariga doir qiziqarli materiallar ham berib borilgan. Mazkur materiallar o‘lka xalq xo‘jaligi va madaniyati tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Gazetada o‘lka hayotining barcha jabhalarini yorituvchi „Ichki xabarlar“, „Xabar va yangiliklar“, „Mahalliy xronika“, „Sankt-Peterburg“ bo‘limlari faoliyat ko‘rsatgan.

„Turkestanskiye vedomosti“da **V. V. Bartold**, L. S. Berg (1876—1950), N. A. Seversev (1827— 85), A. N. Fedchenko (1844—73), I. V. Mushketov (1850—1902), **V. F. Oshanin** (1844—1917) kabi mashhur olimlar, sharqshunoslar hamkorlik qilishgan. Mazkur olimlarning faol ishtirokida gazetaning publitsistik ruhi kuchaygan. Gazetada mahalliy xalq vakillari ham ishtirok etgan. Jumladan, Sattorxon Abdug‘afforovning Qo‘qon xonligidagi ahvol xususidagi ocherki gazeta muxlislarini jalb etgan. Gaz. o‘lka hayotidagi ko‘plab salbiy holatlarni ko‘rsatmaslikka harakat qilgan.

Gazetaning **Moskva**, **Peterburg**, **Vladivostok** va boshqa shaharlarda doimiy muxbirlari bo‘lgan. Dastlab „Turkiston viloyatining gazetasi“ ushbu gaz.ga ilova tarzida chiqarilgan. Gaz. faoliyati Turkiston XKS ning 1917-yil 15 dekabr dagi qaroriga muvofiq to‘xtatilgan (so‘nggi soni 1917-yil 15 dekabrda bosilgan). Dastlabki davrda gazeta 100 nusxa, 1909-yildan esa 853 nusxadan iborat bo‘lgan. Gazetaning tiraji 1000-2500 nusxani tashkil etgan<sup>[1]</sup>.

Narxi (80 tiyin) arzonligiga qaramay, bu gazeta Ismoil Gasprinskiyning ancha qimmatroq nashri bo‘lgan „Tarjimon“ (narxi 3 rubl) bilan raqobatlasha olmagan. Turkiston general-gubernatorligi idorasi tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, gazetaning ommabop bo‘lmashligiga quyidagilar kiradi: juda ko‘p rasmiy buyruq va farmonlar, quruq ma‘lumotlar, hayotdan yiroq xabarlar, ko‘p sonli

atamalar va matnni tushunishni qiyinlashtiradigan arab yoki fors soʻzlarini qoʻllash.

1895-yilda doimiy yoki vaqti-vaqti bilan faoliyat yurituvchi mualliflar soni 290 tani tashkil etdi. Ular amaldorlar, olimlar, shifokorlar, oʻqituvchilar, askarlar, topograflar, muhandislar, agronomlar, kuzatuvchilar va boshqalar boʻlgan.

Oxirgi soni 1917-yil dekabr oyida, oʻsha paytda „Turkiston oʻlkasi Xalq Komissarlari Sovetining organi“ sifatida nashr etilgan<sup>[2]</sup>.

**Vladimir Izmailovich Mejov** [1830.17(29).5, Saratov - 1894.17(29).5, Peterburg)] — bibliograf. Peterburg ommaviy kutubxonasida ishlagan (1851—60). Mejov tarix, geografiya, etnografiya, huquq, adabiyotga oid bir qancha bibliografik asarlar yaratgan. Uning , ayniqsa, 416 jildli Oʻrta Osiyo va Turkiston oʻlkasiga oid asarlar va maqolalar toʻplami — "Turkiston toʻplami" mashhur (unga ilova etilgan 3 jildli sistemali va alfavitli koʻrsatkich ham mustaqil bibliografik ahamiyatga ega). Bu toʻplam Oʻrta Osiyoning hamma sohasiga oid 1867—87 yillardagi maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan eng boy manba hisoblanadi. Mazkur asar Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston milliy kutubxonasi fondida saqlanadi.

19-asrning 60-yillaridan boshlab V.I.Mejov 20 yil davomida Turkiston tarixi, iqtisodiyoti, geografiyasi va etnografiyasi haqida maʼlumot beruvchi manbalarni oʻrganishga va ularga bibliografik koʻrsatkich tuzishga bagʻishladi. U chop etilgan gazeta va jurnal materiallari, toʻplamlar va 1887 yilgacha yozilgan Turkiston oʻlkasi toʻgʻrisida ilmiy tadqiqotlardan tuzilgan 594 tomli «Turkiston toʻplami»ning 416 tomining va 3 tomlik bibliografik koʻrsatkichning muallifidir. Kutubxona mutaxassislari va foydalanuvchilari uchun tashkil etilgan bibliografik sharhda V.I.Mejovning tadqiqotchi-olimlar, tarixchilar, filologlar, geograflar va boshqa soha mutaxassislari uchun tengsiz qimmatga ega boʻlgan xissasi eʼtirof etildi.

1867- yili rus qoʻshinlarining Òoshkentni bosib olishlari bilan Òurkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi. Rus bibliograflari tomonidan Oʻrta Osiyo haqidagi rus va chet tillardagi adabiyotlarning bibliografiyasi tuzila boshlandi. Bu davrda Oʻrta Osiyoda bibliografiyaning paydo boʻlish sababini XIX asrning yirik rus

bibliografi, birinchi bo‘lib O‘rta Osiyo haqidagi adabiyotlarni to‘plagan V. I. Mejov „O‘rta Osiyoni har tomonlama chuqur o‘rganishga sof savdo va ilmiy maqsad sabab bo‘ldi“, deb ko‘rsatadi. Albatta, bu fikr ma‘lum darajada to‘g‘ri, lekin ilmiy maqsad emas, balki sof harbiy maqsad ko‘zda tutilib, O‘rta Osiyo chuqur o‘rganilgan, desak mantiqqa to‘g‘ri keladi. Buni rus qo‘shinlarining qo‘mondoni, O‘rta Osiyo general-gubernatori N. P. Kaufmanning V. I. Mejovdan O‘rta Osiyo haqidagi adabiyotlarning bibliografiyasini tuzib berishni so‘ragani isbot qilib turibdi. V. I. Mejov bunga rozi bo‘lib, O‘rta Osiyo haqida bibliografik ko‘rsatkich emas, balki O‘rta Osiyo haqidagi adabi yotlar to‘plamini tuzib berishni taklif qiladi. O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishda XIX asr yirik rus bibliografi V. I. Mejovning Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston milliy kutubxonasining nodir kitoblar bo‘limida saqlanayotgan, hozirga qadar o‘zining ilmiy-amaliy ahamiyatini saqlab kelayotgan „Turkiston to‘plami“ („O‘zbekiston to‘plami“) muhim ahamiyatga ega. Uning vujudga kelishi hamda ahamiyatiga oid V. I. Mejov zamondoshlari, hozirgi davr mutaxassislari Logofet, Y. K. Betger, N. M. Benediktova, O. G‘. Qosimova, O. V. Maslova, Z. L. Fratkina va boshqalarning qator ilmiy tanqidiy maqolalari mavjud. Lekin bu maqolalarda „Turkiston to‘plami“ning yaratilishi tarixi, ahamiyati, unga tuzilgan yordamchi ko‘rsatkichlar yetarlicha yoritilmagan. V. I. Mejov tomonidan „Turkiston to‘plami“ning yaratilishi Bu noyob kolleksiyani yaratilish tarixi O‘rta Osiyoda eng yirik kutubxonaning (hozirgi Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy kutubxonasi)ning tashkil etilishi bilan bog‘liq. 1868- yil oxirida „To‘plam“ning dastlabki 2 jildi tayyorlandi. Bu o‘shadavrdagi qator olim-bibliograflarning keyingi 50 yillik samarali mehnatining boshlanishi edi. Olimlarga bu ishda kitob ilmining katta bilimdoni, birinchi rus professional bibliografi, ko‘p qo‘llanmalarining muallifi, juda katta tashkilotchilik xususiyatiga ega V. I. Mejov boshchilik qildi. XIX asrning 60- yillari oxirlarigacha Turkiston o‘lkasi Yevropa uchun ilm-fan nuqtayi nazaridan hali o‘rganilmagan katta bir soha edi. O‘rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin iqtisodiy va savdo-sotiq ishlari o‘lkani tez va mukammal tahlil qilishni talab qildi. XIX asrning 60 — 70- yillarida Rossiya imperiyasi vaqtli matbuotida tez-tez O‘rta Osiyo haqidagi maqolalar bosila boshlandi. Rus va xorijiy gazetalar sahifalarida O‘rta


Osiyoga oid siyosiy iqtisodiy va madaniy masalalar haqida bahs olib borilardi. Turkiston o'lkasi haqidagi axborotlar toshqiniga bardosh berish, ba'zan esa qarama-qarshi, bir-biriga zid fikrli axborotlarni to'g'ri tushunish qiyin edi. O'sha davr Peterburg va Moskva gazetalarida yangi o'lka haqidagi baholar yanada avjga chiqqan boshladi. Lekin rus tilida gazetasi bo'lmagan O'shkentda tinchlik va osoyishtalik hukmronlik qilar edi. Pochta esa bu „qoloq“ o'lka hisoblangan „uzoq yurt“ga uch oylik kechikish bilan kelar edi. O'miryo'lning yo'qligi ham markaziy Rossiyaning O'rkistondan ajratib turardi. Shunday paytda ayrim fan fidoyilarida bu o'lka haqidagi materiallarni yig'ish va ularni joyida tadqiq qilish fikri tug'ildi. Shuning uchun kutubxonalarga talab nihoyatda oshdi. 1867- yilda o'lka generalgubernatori K. P. Kaufman yangi tashkil topayotgan kutubxonaga har xil ilmiy kitoblarni hadya etish iltimosi bilan barcha ilmiy madaniy tashkilotlarga murojaat qilishga majbur bo'ldi. Birinchi bo'lib bu iltimosni Rossiya Fanlar akademiyasi, Peterburg xalq kutubxonasi va Rus geografiya jamiyati bajarishga kirishdi, ulardan olingan bir necha yuz kitob O'rkiston xalq kutubxonasi fondiga asos soldi. O'sha davrning o'zidayoq V. I. Mejovga O'rta Osiyo haqidagi adabiyotlar bibliografiyasini tuzish taklif etildi. Bundan tashqari, V. I. Mejov O'rta Osiyo haqidagi bor adabiyotlarni ko'rsatish bilan cheklanib qolmasdan, balki „O'zbekiston adabiyoti“ deb nomlangan to'plamni ham tuzishni o'z zimmasiga oldi. V. I. Mejov O'rkistonning poytaxtdan uzoqligini hisobga olib, bu o'lka haqidagi mavjud adabiyotlarning nomlarini sanab o'tishning o'ziga amaliy ahamiyat kasb etmaydi, deb hisoblardi. „Turkiston to'plami“ 1- jildining kirish qismida u shunday deb yozgan edi: „Ba'zi bir joy yoki ba'zi narsalar haqidagi maqolalarning maxsus bibliografik ko'rsatkichlari, shubhasiz, katta foyda keltiradi, lekin ular katta kutubxona yo'q joylarda bibliografik ko'rsatkichlarda berilgan adabiyotlarni to'la bajarmay va iyerografik yoki kabbalistik belgilar bilan kitoblarga aylanib qoladi“. V. I. Mejov 1868- yilda ishlarning nomini emas, balki to'plamlarga birlashtirilgan kitoblar matnlarini, jurnal va gazeta maqolalarini mujassamlashtirgan o'ziga xos kutubxona tashkil etishga kirishdi. Uning sa'y-harakati va ilmiy jonkuyarlighi tufayli bizga 400 000



bibliografik yozuv kiritilgan 50 dan ortiq meros qoldi. Peterburgda istiqomat qilgan, nashrdan chiqayotgan kitoblar va vaqtli matbuot nashrlari bilan tanishish imkoniga ega bo'lgan Mejov Òrkiston general-gubernatori tomonidan to'plam tuzish uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanib, O'rta Osiyo va unga yondosh mamlakatlarga oid hamma materiallarni yig'ib bordi. Òrkistonga oid gazeta maqolalari va ba'zi kitoblardagi materiallar saralanib, varaqli qog'oz ramkaga yelim bilan yopishtirildi. Hamma yopishtirilgan materiallar yig'ilgach, jildlarga ajratilib, muqovalandi. Jildlar bir xil muqovalangan va bosmaxonada bosilgan, titul varag'i bilan ta'minlangan. V. I. Mejovning yutug'i shuki, u jurnal, gazeta maqolalarini nashrdan chiqishi bilan yig'ardi, shuning uchun xronologik izchillik saqlangan. 1968- yil 1- jildga yozilgan so'zboshida to'plam tuzuvchisi shunday yozadi: „Doimo adabiyot bilan tanishib yurgan kishi O'rta Osiyo ichkarisida joylashgan mamlakatlar haqidagi materiallar qanchalik qashshoqligini biladi. Bir yilda nashr etilgan 2 — 3 ta asargina bizni kundan kunga yanada ko'proq qiziqtirayotgan yangi mamlakatlar haqidagi bilimlarimizga qo'shilgan hissadir. Men bu yerda kitobni nazarda tutaman, zamonaviy nashrlardagi maqolalarga kelganda birgina ularning ko'pligi jamiyatimiz O'rta Osiyoda qo'lga kiritgan narsalarga qay darajada qiziqishidan dalolat beradi. Shuning uchun men oz bo'lsa-da, bu asarlarim bilan qo'lga kiritilgan yangi o'lkaga nafim tegishini ko'zlab, kutubxonaga qo'shaloq qilib ushbu maqolalar to'plamini hadya etishga jazm etdim“. 1868- yili „To'plam“ning 1867- yil materiallarini o'zida mujassamlashtirgan 4 ta jildi tayyorlandi. Keyingi yillarda esa, izchil ravishda, 1887- yilga qadar „To'plam“ning jildlari tayyorlanib, Òrkiston xalq kutubxonasiga yuborib turildi. 1888- yilga kelib, 5000 ga qadar materialni o'z ichiga olgan 416 jildi tayyor bo'ldi. Òo'plamning mukammalligi haqida V. I. Mejov: „Bu o'ziga xos katta bir qomus, — deydi, — ammo hali u men xohlagan darajada to'la emas. Ba'zi maqola va kitoblar mening to'plamimda juda kam, adabiyotning o'ndan bir qismigina, xolos“. 20 yil (1867 — 1887- yy.) mobaynida Rossiya va xorijda O'rta Osiyo haqida chiqqan jami 4713 nomdagi gazeta, jurnal maqolalari, kitoblar, badiiy asarlar, hattoki illusrativ materiallar to'plamning 416 ta jildiga kiritilgan. Bu to'plamning yaratilish tarixi haqida bahsli tomonlar ham bor, ya'ni

ba'zi mualliflarning fikricha, ushbu ishga birinchi bo'lib bibliograf S. A. Idarov qo'l urgan. „Turkiston to'plami“ni tuzish g'oyasini, — deb yozadi o'zbek bibliografiyasi tashkilotchilaridan biri N. A. Burov, — K. P. Kaufman emas, balki V. I. Mejov yoki S. A. Idarov ilgari surgan“. N. A. Burov O'rta Osiyo haqida yozilgan, O'zbekiston milliy kutubxonasining nodir kitoblar fondida saqlanayotgan, XX asrning 50 — 60- yillarida nashr qilingan Rus geografiya jamiyatining „*Âîâíúé ñâíðíèè*“ nashridan olingan 2 ta shunga o'xshash maqolalar to'plamini asos qilib olgan bo'lishi mumkin. Bu to'plamlar O'rkiston general-gubernatori idorasining birinchi boshqaruvchisi, O'rta Osiyo o'lkasi bilimdoni N. K. Gyesning kutubxonasidan topilgan. Bu kutubxona Gyesdan 1869- yili O'shkent xalq kutubxonasi tashkil etilayotganda sotib olingan edi. O'oplamning har ikkisi ham S. A. Idarov tomonidan tuzilgan, hozirga qadar kutubxonaning nodir kitoblar fondida saqlanayotgan 1849 — 67- yillarda nashr etilgan O'rta Osiyoga oid geografik va etnografik xarakterdagi maqolalar kiritilgan yana 6 jildi saqlanmoqda. „Turkiston to'plami“ga V. I. Mejov tuzgan yordamchi ko'rsatkichlar „Turkiston to'plami“ning V. I. Mejov tomonidan tuzilgan va 1878 — 84- yillar nashr etilgan 3 jildlik „*Ñèñòàìàòè÷ãñèè è àçáo÷íúé óèàçàòàëü ñî÷éíáíèè è ñòàòàé íà ðóññèî è èíñòòàííúõ ýçûèàð*“ („Rus va xorijiy tillardagi asarlar va maqolalarning alifbosi va sistemali ko'rsatkichi“) ko'rsatkichi katta ahamiyatga ega. Ko'rsatkichda materiallar quyidagicha guruhlashtirilgan: 1. Umuman O'rta Osiyo o'lkasi. 2. Xususan O'rkiston o'lkasi. 3. Rossiyaga bo'ysunmagan O'rta Osiyo o'lkalari. Dastlabki bo'limda materiallar sistemali joylashtirilgan. 2- bo'limga geografiya va statistika, gidrogeografiya, aloqa yo'llari, kartografiya, tarix, etnografiya, O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan urushlar tarixi, siyosiy-iqtisodiy va huquqiy fanlar, qishloq xo'jaligi, paxta yetishtirish, vino ishlari, tog' ishlarining rivojlanishi, geologiya ishlari tarixiga oid, meteorologiya, tabiat tarixi, astronomiya va geodeziya, meditsina, tilshunoslik va lug'at bo'yicha adabiyotlar keltirilgan. Ushbu soha masalalariga oid adabiyot bir-biri bilan uzviy bog'liq holda sistemalashtirilgan. Materialni joylashtirish sxemasi Mejov tomonidan hamisha takomillashtirilib, muayyan fan sohalari bo'yicha yangi rubrikalar ajratib borilgan. 3- bo'limda Buxoro, Xiva, O'rkmaniston, Mo'g'iliston, Sharqiy O'rkiston, Kashmir,





Angliyaning Hindistonni bosib olgan joylari va ularning O'rta Osiyoga munosabati, Afg'oniston, Hirot va boshqa o'lkalarga oid adabiyotlar joylashtirilgan. Ko'rsatkichga juda qulay yordamchi „kalitlar“ tuzilgan:

1. Bibliografiyada uchraydigan muallif, tarjimon va boshqa shaxslar nomlarining alifboli ko'rsatkichi.
2. Xorijiy bibliografiyada uchraydigan muallif va predmet larning alifboli ko'rsatkichi.
3. Joy va predmetlarning alifboli ko'rsatkichi.

Alifboli ko'rsatkichlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, muallifning familiyasi, joylari yoki predmetlarning nomidan keyin asarlar nomi keltirilgan va ko'rsatkichning sistemali qismida uni ro'yxatga olish tartib raqami ko'rsatilgan, mualliflar va asarlarining to'plamga berilgan kalitida 3 marta takrorlanish prinsidi „To'plam“dan foydalanish uchun juda qulay imkoniyat yaratadi. Ko'rsatkichda har bir yangi maqola yoki kitobni tavsiflashdan oldin sarlavha, muallifning familiyasi, so'ngra qavs ichida nashr manbasi (jurnal, gazeta va boshqalar) haqida ma'lumot va oxirida esa yangi satrdan shu kitob yoki maqola kiritilgan „Turkiston to'plami“ jildining raqami berilgan. Bu prinsid „Turkiston to'plami“ bo'lmagan holda yordamchi „Kalitlar“ni mustaqil bibliografik manba sifatida qo'llash imkonini beradi. Shu munosabat bilan Mejov 1-jildning so'zboshisida shunday yozadi: „Men o'z ko'rsatkichimni faqat „Turkiston to'plami“dan foydalanish imkoniga ega bo'lgan shaxslar uchun ham yaroqli qilib tuzganman. Shu maqsadda men to'plamda joylashgan har bir maqolaning sarlavhasi oldida bu manba qaysi vaqtli nashrdan olinganligini ko'rsatuvchi ma'lumotni havola qiluvchi izohlar berdim“. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu yaxshi niyat hamisha ham to'g'ri amalga oshavermagan. Binobarin, ko'rsatkichning ba'zi joylarida manba ko'rsatilgan bo'lsa, uning nashr yili, chiqish soni va boshqalar ko'rsatilmagan. Bundan tashqari, bibliografik tavsifdagi ayrim har xilliklarning sababi — „To'plam“ joylashgan yerdagi (O'shkent) mahalliy kutubxonachi tomonidan yozilganligi va qolganlarinigina „to'plam“ni tuzish vaqtida Mejovning o'zi tayyorlaganligidir. „Turkiston to'plami“dagi O'shkent qismining tavsifini Kaufman topshirig'i bilan O'rkiston xalq kutubxonasi kutubxonachisining yordamchisi V. Chuyko bajargan. Buni uning Kaufmanga yozgan ma'lumotnomasi isbotlaydi: „Hazrat oliylari buyrug'iga muvofiq janob Mejov bergan yozma ko'rsatma asosida u

kishi tomonidan tuzilayotgan „Ñáíðíèè ñî÷:éíáíèè î Òóðêãñòàíñêîî êðàà  
âñáúà è ñîððááâëüíû ñ íèì ñòðáí Ñðááíáé Àçèè“ (Òurkiston o‘lkasi va  
O‘rta Osiyoga tegishli mamlakatlar haqidagi asarlar to‘plami“) uchun  
tayyorlangan ko‘rsatkich materiallarini Sizga taqdim etishga ijozat  
bergaysiz“. Qizig‘i shundaki, V. Chuyko „Turkiston to‘plami“dan  
foydalanish uchun vaqtinchalik ko‘rsatkich tuzgan edi. O‘sha  
ma‘lumotnomada shunday deyilgan: „Esga olingan ko‘rsatkichni  
tuzish, nashr etish va yuborish 8 oyga yaqin vaqtni olishini taxmin  
qilib, men to‘plam bilan tanishuvchilarning foydasini ko‘zlab,  
vaqtinchalik ko‘rsatkich ham tuzdim, uni ham Siz hazrati oliylariga  
yubordim“. Kaufman Chuyko fikrini qo‘llab, vaqtinchalik ko‘rsatkich  
uchun tashakkur bildiradi. Afsuski, respublika kutubxonasi fondida  
ushbu vaqtinchalik ko‘rsatkich saqlab qolinmagan va „Turkiston  
to‘plami“ning qaysi jildi uchun tuzilganligini bilish qiyin. Qator  
xatolari, materialni sistemalashtirishdagi juz‘iy kamchiliklariga  
qaramay, ko‘rsatkich nihoyatda noyob bibliografik qo‘llanmadir.  
Ko‘rsatkich V. I. Mejov zamondoshlari tomonidan juda yuqori  
baholangan. Òaniqli sharqshunos olim D. I. Logofet shunday yozgan  
edi: „V. I. Mejovning bunday yirik ishi unga nafaqat mashhurlik, balki  
ishiga manbalar kerak bo‘lgan barcha odamlarning tashakkurini keltirdi  
va har bir shaxs o‘z ishida O‘rta Osiyoga oid masalalarni hal qilishda  
„Turkiston to‘plami“ga tuzilgan ko‘rsatkich bilan uchrashgan“, deb  
yozadi. V. I. Mushketov „Turkiston to‘plami“ni shunday ta’riflaydi:  
„Kaufman kutubxonani tashkil etdi, uning eng noyob narsalaridan biri  
bibliograf V. I. Mejov tayyorlagan 416 jilddan iborat bo‘lgan „O‘rta  
Osiyo va Òurkiston o‘lkalariga oid asarlar va maqolalarning Òurkiston  
to‘plami“ („Óóðêãñòàíñêîèè ñáíðíèè ñî÷:éíáíèè è ñòàòáé, îòíññýèðñý âí  
Ñðááíáé Àçèè âñáúà è Òóðêãñòàíñêîâî êðàý â ññááíññòè“)dir“. Shuni  
aytish kerakki, to‘plamga V. I. Mejov o‘zi topolmagan yoki bevosita  
ko‘rmagan ko‘pgina materiallarni kiritmagan. Bu haqda „To‘plamga“  
tuzgan ko‘rsatkichning 1- jildiga yozgan kirish so‘zida shunday deydi:  
„Men kitobning nashrdan chiqqanidan xabar topib, pul yuborardim.  
Lekin kitobni ololmasdim, hattoki pullar ham qaytarilmasdi“, deb  
yozadi. „To‘plam“ning mukammal emasligini zamondoshlari, O‘rta  
Osiyo o‘lkasi tadqiqotchilari P. V. Dmitrovskiy va N. N. Ostroumovlar  
ham ta’kidlashgan. 1884- yilda ular generel-gubernator I. O.

Rozenbaxga „Xalq kutubxonasini tiklash“ (Òurkiston xalq kutubxonasi 1883- yil 1- yanvarida K. G. Kaufman vafotidan keyin uning o‘rniga bo‘lgan general-gubernator M. Chernyayev tomonidan yopilgan edi) va „Turkiston to‘plami“ni tuzish masalalari bilan shug‘ullanuvchi komissiya a‘zolari nomidan xat yo‘lladilar. Bu xat Mejov to‘plamining to‘xtab qolishiga asosiy sabab bo‘lgan. „Turkiston to‘plami“ni tuzish va jildlarni tayyorlash ishlari izchil ravishda 1887- yilgacha davom etdi. Chunonchi har yili o‘rta hisobda 20 tadan jild tayyorlangan. Agar ruslarning Òurkiston o‘lkasini o‘rganish va tadqiq etish bo‘yicha dastlabki 20 yil mobaynida ko‘p sonli ekspeditsiyalar va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazgani natijasida o‘lka haqida yirik hajmli fundamental ishlar vujudga kelgan bo‘lsa, keyingi o‘n yillikda bu ishlar ancha susayib ketganligini ko‘rish mumkin. „Turkiston to‘plami“dan tashqari, V. I. Mejov „Õèâèîñêèè ñâîðîèè“ („Xiva to‘plami“)ni ham tuzgan edi, lekin uning taqdiri hozirgacha noma‘lum. 1865 — 76- yillarda chiqqan „Ðõññêàÿ èñòîðè÷âñêàÿ áèâèèîäðàòèÿ“ („Rus tarixiy bibliografiyasi“)da V. I. Mejov shunday yozgandi: „K. P. Kaufmangrafiyasi“)da V. I. Mejov shunday yozgandi: „K. P. Kaufman topshirig‘i bilan men uning uchun bir nusxada „Turkiston to‘plami“ga o‘xshash 6 yoki 7 jilddan iborat bo‘lgan Xiva yurishi haqida to‘plam tuzdim. U hozirgi vaqtda qayerda ekanligi menga noma‘lum“. General-gubernatorning o‘sha 1887- yilgi buyrug‘idan so‘ng, keyingi 20 yil mobaynida Òurkiston o‘lkasi haqida yozilgan kitob va gazeta materiallari hech kim tomonidan to‘planmadi.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

Internet manbalaridan foydalanib tayyorlandi.

<https://t.me/natlibuz/16872>

[https://uz.wikipedia.org/wiki/Vladimir\\_Mejov](https://uz.wikipedia.org/wiki/Vladimir_Mejov)

<http://old.natlib.uz:8101/uz/article/1539/>

<https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/27/NamDU-ARM-11879-Bibliografiya.pdf>